

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



BD-60410100-1.02
BD-60410100-1.06
2024 yil "30" avgust

IQTISODIYOT NAZARIYASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

Ta'lim sohasi:

Ta'lim yo'nalishi:

400000 – Biznes, boshqaruv va huquq

410000 – Biznes va boshqaruv

60410100 Iqtisodiyot

60410100-Moliya va moliyaviy texnologiyalar

60410500-Bank ishi va audit

Termiz – 2024

Fan/modul kodi IQN/1210	O'quv yili 2024-2025	Semestr I / II	ECTS-kreditlar 5/5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Haftadagi dars soatlari 5
Fanning nomi	Jami yuklama (soat)			
1.	Iqtisodiyot nazariyasi (jami)	150	150	300
	I semestr	74	76	150
	II semestr	76	74	150
2.	I. Fanning mazmuni			
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotdagi asosiy tushuncha va kategoriyalarni, iqtisodiy qonunlar va prinsiplarni o'rgatish hamda amaliyotda ularni qo'llay olish xususiyatini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi- nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini o'rganish, ularga nisbatan shaxsiy munosabati shakllantirish orqali iqtisodiy muammolarni echish yo'llarini topa olish qobiliyatini shakllantirish.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - iqtisodiy atamalar, konsepsiya va nazariyalarni bilish va tushunishni o'rgatish; - iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalana olishni o'rgatish; - iqtisodiy tahlil qila olishni o'rgatish; - iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq tasvirlashni o'rgatish; - iqtisodiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy konsepsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish. 			
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)			
	II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:			
	1-mavzu. Iqtisodiyotga kirish. Iqtisodiyot tushunchasi, uning tarkibi va tuzulishi.			
	<p>Iqtisodiy faoliyat va takror ishlab chiqarish jarayoni. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Cheklangan resurslar va cheksiz ehtiyojlarining qondirilish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik. Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Qadimgi Sharq va G'arb xalqlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar: merkantilizm, fiziokratlar, ingliz klassik iqtisodiy maktabi, marksizm va marjinalizm. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar</p>			
	2-mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va o'rganish usullari.			
	<p>Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari. Iqtisodiyot</p>			

nazariyasining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilishning usullari. Iqtisodiy tahlilda abstraktsiya, induksiya, deduktiya, normativ, pozitiv, analiz, sintez, tarixiy, matematik, statistik va grafik usullardan foydalanish. Iqtisodiy modellar tushunchasi. Optimallashtirish va muvozanatlashgan modellar. Ehtiyojning mazmuni va ularning turkumlanishi. Ehtiyojning o'sib borishi qonuni. Iqtisodiy resurslarning mazmuni va uning turlari. Iqtisodiy resurslar va ehtiyojning qondirilish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik. Ehtiyojning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi. Iqtisodiyotning bosh muommosini hal qilish yo'llari.

3-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni, uning natijalari va samaradorligi.

Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish omillari to'g'risidagi nazariyalar. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni. Qisqa va uzoq davrda ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi. Ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning egri chizig'i. Ishlab chiqarish funksiyasi. Keyingi qo'shilgan omil unumdorligi. Unumdorlikning pasayib borish qonuni. Ishlab chiqarishning mikro va makro darajasi. Ishlab chiqarish samaradorligi, uning ko'rsatkichlari va hisoblash usullari. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari va omillari. Yer, ishchi kuchi, kapital va tadbirkorlik qobiliyati tushunchalari.

4-mavzu. Iqtisodiy tizim modellari.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: formasion, madaniyashgan, mulkiy, texnologik industrial, taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanish hamda sikllik rivojlanish, darajasi jihatidan yondashuv. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usuli. Ijtimoiy-iqtisodiy formasiya. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Oddiy kooperatsiya, manufaktura va yirik mashinalashgan ishlab chiqarish. Industriyalashgacha bo'lgan jamiyat, industriyalashgan ishlab chiqarish. Industriyalashgan (axborotlashgan) jamiyat. Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, buyruqli iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.

5-mavzu. Mulkechilik shakllari va mulkechilik munosabatlari.

Mulkechilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni. Mulki o'behti va sub'ekti. Mulkechilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari. Mulki shakllarining tasniflanishi. Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkechilikning o'rni. Mulkechilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliy lashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish. Davlat mulkini xususiy lashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

<p>edition. Pearson. New York. 2019</p> <p>4. Экономическая теория: учебник / С.С. Носова — 4-е изд., стер. - Москва: КНОРУС, 2017. - 792. с.</p> <p>Axborot manbaalari</p> <p>1. www.lex.uz— O‘zb. Resp. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi</p> <p>2. www.gov.uz—O‘zbekiston respublikasi hukumat portali</p> <p>3. www.tradingeconomics.com — экономические показатели</p> <p>4. www.unilbrary.uz</p> <p>5. www.ziyounet</p>	<p>7. O‘quv dasturi Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassislari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2023- yil 29-avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan namuna asosida ishlab chiqilgan va Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kengashining 2024 yil 30 avgustdagi 1/3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
<p>Fan/modul uchun mas’ullar:</p> <p>TISU, “Iqtisodiyot” kafedrası professor-o‘qituvchilari: T.Mamadjanova, M.Amonov, N.Abduraimova, B.Erdanaev</p>	<p>8.</p>
<p>Taqrizchilar:</p> <p>Xatamov O.Q –Termiz davlat universiteti Kompyuter va dasturiy injenering kafedrası mudiri, i.f.d., professor.</p> <p>Abdulxayeva G.M– Termiz davlat universiteti, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası mudiri, i.f.f.d., dotsent.</p>	<p>9.</p>

6-mavzu. Tovar-pul munosabatlari Ijtimoiy xo‘jalik shakllari.
 Natural va tovar ishlab chiqarish, ularning belgilari va farqlari. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari. Iqtisodiy ne‘mat, mahsulot, tovar va xizmat tushunchalari mazmuni. Tovar va uning xususiyatlari. Tovarining nafilligi. Tovar qiymatining miqdori. Nafillik turlari. Keyingi qiymatning miqdori nazariyasi. Umumiy va aniq nafillik. Nafillikning pasayib borishi. Mehnat unumdorligi va intensivligining tovar qiymati miqdoriga ta’siri. Qiymatning mehnat nazariyasi. Qiymat qonuni. Tovar qiymatining farqlanishi shart-sharoitlari. Qiymat paradoksi. Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pul to‘g‘risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning vazifalari: qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, jamg‘arish vositasi, to‘lov vositasi. Hozirgi zamon pulining tabiati va mazmuni. Oltin va qog‘oz pullarning o‘zaro bog‘liqligi. Naqd va kredit pullarning xususiyatlari. O‘zbekistonda milliy valyuta – so‘mning muomalaga kiritilishi bosqichlari va ularning ahamiyati. Milliy valyuta barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlar.

7-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning amal qilishi
 Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining sub’ektlari: uy xo‘jaliklari, tadbirkorlik va davlat sektori. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo‘jaligi modellari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo‘llari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Iqtisodiy faoliyat va tanlov erkinligi. Iqtisodiy manfaatlarning ta’minlanishi. Bozor iqtisodiyotining ziddiyatlari va salbiy jihatlari.

8-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari
 O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tamoyillari va xususiyatlari, respublikada bozor islohotlarini amalga oshirishning mazmuni, maqsadi va asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, bozor munosabatlariga o‘tish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o‘zgartirishi, keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiyalashni amalga oshirish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish kabi strategik vazifalarni amalga oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

9-Mavzu. Talab va taklif nazariyasi, bozor muvozanati.
 Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Giffen samarasi. Talab egri chizig‘i. Talab miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar: tovarlar narhi, iste’molchi didi, bozordagi iste’molchilar soni, ularning pul daromadi, o‘rmini bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlar o‘zgarishining ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig‘i. Taklif miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar: resurslar narxi va unumdorligi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o‘zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy

4.	<p>• Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilishusullarini bilgan holda samarali qo'llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarning (kategoriyalarning) amal qilish xususiyatlarini, mexanizmlarini bilgan holda iqtisodiy muammolar bo'yicha echimlar hosil qilish ko'nikmalariga <i>ega bo'lishi kerak.</i></p> <p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslanadigan amaldagi ishlarni baholash; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda qatnashish; • kichkina guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni baholash; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni o'tkazish;
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifava topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>IX. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. H. Mamedov, N. Muminov, A. Umarov, A. Ismailov. Iqtisodiyot nazariyasi Darslik. - T. "Bookmany print" 2022. 537 b. 1-2-3 tom 2. Sh. Shodmonov, M. Rahmatov Iqtisodiyot nazariyasi Darslik. - T. Zamin Nashr, 2021. - 856 bet. 3. Z. Gaibnazarova, Sh. Isamuxametov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik) - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. 526 b. 4. Хажиев Б.Д., Мамбетжанов К.К. Экономическая теория. Учебник Т.: «ИКТИСОДИЕТ», 2019. - 552. стр 5. Ходиев В.У., Шодмонов Ш.Ш. Iqtisodiyot nazariyasi Darslik. - T. Barkamol fayz-media, 2017. - 783 bet. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tursunov A.M. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. T.: «IIm ziyozakovab», 2024. -375 2. Iminova.A.N, Shuhratov.Sh.M, Bababekova.B.N, Muhammadalievva B.N. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. T. Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nurafshon filiali/- 2021.-224 b 3. R. Glenn Hubbard, A. Patrick O'Brian. Essentials of Economics. 6th

resurslarga talab va taklifning xususiyatlari. Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o'zgarishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif egiluvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar. Egiluvchanlik koeffitsientini hisoblash.

10-mavzu. Mukammal bozorda raqobat va monopoliya.

Raqobatning mohiyati va ob'ektiv asoslari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobatlashish usullari: narx vositasida va narxsiz raqobat. G'irrom va halol raqobat. Damping narxlarni qo'llash. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k. Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: iqtisodiy va tabiiy monopoliyalar. Legal va sun'iy monopoliyalar. Lerner koeffitsienti. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy- iqtisodiy oqibatlari. SHumpeter gipotezasi. O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Antimonopol qonunchilikning vujudga kelishi. Sherman akti- 1980. Kleyton Akti-1914. Federal savdo Komissiyasi dalolatnomasi- 1914. Sellar Kefaver akti-1950. Monopoliyaga qarshi siyosat. Davlatning tabiiy monopoliyaga qarshi tadbirlari. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarni tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora - tadbirlar. O'zbekiston respublikasining monopoliyalarga qarshi qonunchiligi va uni amalga oshirish mexanizmi.

11-mavzu. Narxning mohiyati va uning shakllanishi.

Narxning mazmuni va uning obektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovar xususiyatlarining narxlarda ifodalanishi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari. Narx turlari: ulgurji va chakana narxlar. Nufuzli, damping va dotasiyalangan narxlar. Shartnomaviy, erkin va tartibga solinuvchi narxlar. Hududiy, milliy va jahon bozori narxlari. Narx diapazoni. Narx partiet. Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Sof raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Sotuvchi va xaridor narxlari. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Umumiy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Umumiy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Ergashish va inkor etish holatlari. Narxning etakchilik. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni erkinlashtirish yo'llari va bosqichlari.

12-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik kapitali

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish shart-sharoitlari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari. Kooperativ, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik. Korxona tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlik kapitali. Aksiya va

uning turlari. Aksiya kursi. Dividend va ta'sischi foydasi. Aksiya nazorat paketi. Obligatsiyalar. Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Menegment — korxonalarni boshqarish tizimi sifatida. Menegmentning maqsadi va vazifalari. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi va uning bosqichlari. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarning doiraviy aylanishi xususiyatlari. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylamma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqti va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy va ma'naviy eskirishi hamda qayta tiklanishi. Amortizatsiya va uning normasi. Jadallashgan amortizatsiya. Asosiy va aylamma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

13-mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari va foydasi.

Ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi. Jamiyat va korxonalar xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar. Xarajatlarni minimallashtirish qoidasi. Tannarx tushunchasi. Korxonalar (firma)ning pul tushumlari va foydasi. Foydalaning mazmuni, uning taqsimlanishi va ishlatilishi. Xarajatlar va daromadlar egri chizig'i. Umumiy foyda. Foydalaning tarkib topish bosqichlari. Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Yalpi foydalaning taqsimlanishi. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqlanishi. Sof foyda. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

14-mavzu. Ish haqi va mehnat munosabatlari.

Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi. Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifi o'zgartirish. Kasb bo'yicha malaka darajasini listenziyalash. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug'urta tizimi. Mehnat munosabatlari tartibga solishda davlatning roli. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchini bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Ishchi kuchining miqdoriy aniqlanishi va sifat o'zgarishlari. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari. Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

15-mavzu. Agrar munosabatlar va agrobiznes.

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi o'rni. Erning resurs sifatidagi o'ziga xosligi. Erning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq

19. O'zbekistonda mehnat munosabatlarining o'ziga hos xususiyatlari
20. Agrobiznes va uning turlari
21. Milliy hisoblar tizimi va O'zbekistonda unga o'tishning vazifalari.
22. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish omillari.
23. Investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
24. Iqtisodiy inqirozlarning mazmuni va vujudga kelish sabablari,
25. Iqtisodiy inqirozlarning turlari.
26. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Oukten qonuni bozorining shakllanishi.
27. O'zbekistonda moliya
28. Pul tizimi va uning evolyutsiyasi
29. O'zbekistonda davlatning pul-kredit siyosati, uning dastaklari va amalga oshirish vositalari.
30. Iqtisodiyotda pul-kredit siyosati va undagi o'zgarishlar
31. Iqtisodiyotda byudjet-soliq siyosati
32. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar siyosati va modernizatsiya lash
33. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish muammolari;
34. Iqtisodiy barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sish omillari.
35. Iqtisodiy rivojlanishda tuzilmaviy o'zgarishlar.
36. Iqtisodiy siyosat subektlari va uning o'ziga xos xususiyatlari.
37. Iqtisodiy o'sish va uni ta'minlovchi omillar
38. Investitsiya siyosati va investitsiya faoliyatini tartibga solish
39. O'zbekistonda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muammolari.
40. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati.
41. Xalqaro iqtisodiy iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllari va yo'nalishlari.
42. O'zbekiston tashqi savdo munosabatlari geografiyasining sifat jihatidan o'zgarib borishi.
43. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi.
44. Ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish
45. Ishchi kuchi bozorining davlat tomonidan tartibga solinishi.
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiy asoslari, bosqichlari, o'zgarish sabablari va oqibatlari; hozirgi zamon iqtisodiyotining xususiyatlari; iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar to'g'risida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- Iqtisodiyot asoslarini, milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini; makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarini; iqtisodiy jarayonlarning amal qilishi haqidagi *tasavvurga ega bo'lishi*;

holda bayon qilish tajribasiga ega bo'lishi juda muhimdir. Bo'lajak iqtisodchi mutaxassis o'z fikrlarini aniq va ravon bayon qila olishi, kiritayotgan takliflarini ilmiy va nazariy jihatdan asoslay bilishi, iqtisodiy terminlarni o'z o'rnida to'g'ri ishlatib bilishi, kerakli ma'lumotlarni to'play olishi va qayta ishlay olishi, ularni atroflicha tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda bajariladi va ma'lum ma'noda, ilmiy izlanish olib borishning kichik bir shaklidir. Ayrim iqtidorli talabalar kurs ishini bajarish jarayonida birmuncha chuqur va keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib boradilar, ularning mustaqil ravishda bajargan kurs ishlari talabalar ilmiy to'garaklarida, ilmiy konferentsiyalarda va tanlovlarda ilmiy ma'ruza qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ishda nafaqat mamlakat ichki institutsional tuzilmalarining, balki tashqi kuzatuvchilar, BMT, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon Banki kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlarning, xalqaro va umummilliy tashkilotlarning tegishli ma'lumotlarini keltirish hamda O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar va strategiyalarning mohiyatini tahlil qilish natijalarini aks ettirish yuqori baholanadi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari, O'tish davri iqtisodiyoti nazariyasi, uning belgilari, turlari va qonuniyatlari
2. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari
3. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish maqsadi, yo'llari va usullari
4. Xususiy mulkchilik tarmog'ini kengaytirish – mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida.
5. O'zbekistonda milliy bozorni shakllantirish vazifalari.
6. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli va uning o'ziga xos xususiyatlari.
7. O'zbekistonda ko'p ukladli iqtisodiyotning va mulkdorlar sinfning shakllanishi.
8. Bozor iqtisodiyotiga o'tish modellari, ularning xususiyatlari,
9. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlik
10. Monopoliyaga qarshi qonunchilik va ularning amal qilishi
11. Davlatning narx siyosati, maqsadi va vazifalari
12. Davlat iqtisodiy siyosatining mohiyati va uni rivojlantirish yo'nalishlari.
13. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish bosqichlari va samara chegaralari.
14. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishi va uning ahamiyati
15. O'zbekistonda narx siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.
16. Asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi
17. Mehnat unumdorligi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.
18. Ishlab chiqarish rentabelligi va unga ta'sir etuvchi omillar

xo'jaligida takror ishlab chiqarishning xususiyatlari. Er mulkchilik va xo'jalik yuritish ob'ekti. Erga egalik va erdan foydalanish huquqi. Er rentasiga bo'lgan turli xil nazariy yondashuvlar va ularning tarixiy shakllari. Er rentasining mazmuni va turlari: differensial renta, absolyut renta, monopoliya renta, undirima sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Erning narxi va uni belgilovchi omillar. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majyasi va uning sohalari. Agrobiznes va uning turlari. Dehqon va fermer xo'jaliklari. Agrofirma, agrosanoat birlashmasi, agrosanoat kombinatlari. O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. Erlarning meliorativ holatini yaxshilash choralari. SHaxsiy tomoqalarning kengaytirilishi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. Xo'jalik yuritishning samarali shakllarini rivojlantirish. Fermer xo'jaliklari er maydonlari hajmini optimallashtirish, Qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.

16-mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.
Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Narx indeksi.

17-mavzu. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi.

Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad. Yalpi milliy daromad. Xurfiyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari. Milliy hisoblar tizimi. YAIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YAIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investitsion sarflar. Davlat sarflari. Chet elliklarning sarflari. YAIMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv. YAIMni hisoblash usullarining afzalliklari va kamchiliklari. YAIM va ijtimoiy farovonlik.

18-mavzu. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish.

Iqtisodiy taraqqiyot va—iqtisodiy rivojlanish tushunchalari mazmuni. Iqtisodiy o'sish uning mezon va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Iqtisodiy o'sishning omillari. Yalpi talab va yalpi taklif o'zgarishining iqtisodiy o'sishga ta'siri. Iqtisodiy o'sishda taqsimlash omillarining o'rni. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar. Iqtisodiy o'sishning keynscha va neokeynscha modellari. Kobb-Duglas modelining mazmuni. R.Xarrod va E.Domar modellari. V.Leontevning xarajatlar-naifalar modeli. Noldarajadagi iqtisodiy o'sish konstepstiyasi.

19-mavzu. Yalpi talab va yalpi taklif

Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. Yalpi talab egri chizig'i. Narx darajasi oshirishning foiz stavkasi va yalpi talabga ta'siri. Yalpi taklif tushunchasi, uning hajmi va tarkibiga ta'sir etuvchi omillar. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning

o'zgarishi. Xrapovik samarasi.

20-Mavzu. Iste'mol va jamg'arma, ularning manbalari.

Iste'molning mazmuni va uning turlari. Shaxsiy, umumiy va ijtimoiy iste'mol. Iste'mol fondi va iste'molchilik sarflari. Jamg'arma va uning maqsadi. Iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilovchi omillar. Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik va ularni aniqlash. Iqtisodiy jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish. Jamg'arish normasi. Nominal va real jamg'arish.

21-mavzu. Investitsiyaning mohiyati va turlari.

Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investor va investitsion faollik tushunchalari. Investitsiyalarning manbalari va tuzilishi. Investitsiyalarga sarflar darajasini belgilovchi omillar. Yalpi va sof investitsiyalar. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbat. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik va keynscha modellari, ular o'rtasidagi farqlar. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ichki investitsiyalarning o'rni va chet el investitsiyalarini jalb qilishning ahamiyati. Tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilishi.

22-mavzu. Milliy iqtisodiyotning muvozanati va mutanosibli rivojlanishi.

Iqtisodiy muvozanatlik tushunchasi. Umumiy iqtisodiy va xususiy muvozanatliklar. Turg'un va muttasil o'zgarib turuvchi muvozanatlik. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash usullari. Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli. Tarmoqlararo balans, harajat va natija usuli. Restession va inflyatsion farq. Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli. Multiplikator samarasi. Akselerator samarasi. Tejamkorlik parodoksi. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. Mutanosibliklarning tasniflanishi. Mutanosibliklarni ta'minlash orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivojlantirish maqsadlari. O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirish. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish natijalari. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni o'z ichiga oluvchi uzoq muddatli dasturlarning ahamiyati.

23-Mavzu. Iqtisodiyotning siklliligi Bozor iqtisodiyotida inqirozlar.

Iqtisodiy tebranishlar. Sikl tebranishlarning oqibatlari. Iqtisodiyotning siklliligi rivojlanishi. Iqtisodiy sikl fazalari. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Eksternal va internal nazariyalari. Sof monetar nazariya. Etarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Jamg'arish nazariyasi. Psixologik nazariya. Iqtisodiy sikl turlari.

24-mavzu. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik

Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Ishchi kuchining miqdoriy aniqlanishi va sifat o'lehamlari. Nufus qonuni. Aholining tabiiy

9. Tadbirkorlik faoliyati va uning shakllari. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi.

10. Korxonalar (firma) xarajatlari va foydasi
11. Ish haqi va mehnat munosabatlari
12. Agrar munosabatlari va agrobiznes
13. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.
14. Yalpi talab va yalpi taklif.
15. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar
16. Iqtisodiy taraqqiyot, Iqtisodiy o'sish va milliy boylik.
17. Milliy iqtisodiyotning muvozanati va mutanosibli rivojlanishi.
18. Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy beqarorlik.
19. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik.
20. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat.
21. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli.
22. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli.
23. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati.
24. Jahon xo'jaligi va uning evolutsiyasi.
25. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi.

26. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.

27. O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining xususiyatlari.

28. O'zbekiston iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirilishi.

29. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi.

30. O'zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar va monopoliyaga qarshi qonunchilik

31. 2022 - 2026 yillarda O'zbekistonda innovatsion rivojlanish strategiyasida erishilgan natijalar va istiqbollari tahlili

32. O'zbekistonning 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili.

33. Yangi O'zbekiston. Islohotlar va dunyo e'tirofi

34. Kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlili.

35. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish omillari tahlili.

Kurs ishi ustida ishlash davomida talaba o'quv jarayonida olgan nazariy bilimlari va mustaqil tadqiqot natijalarini yozma ravishda bayon qilish uslubini, keltirilgan fikrlarning aniqligi, materiallarning joylashishi ketma-ketligi, rasmiylashtirishga qo'yiladigan umumqabul qilingan talablarni hisobga olgan

3. Ishlab chiqarish jarayoni, uning natijalari va samaradorligi
 4. Iqtisodiy tizim modellari
 5. Mulkchilik shakllari va mulkchilik munosabatlari.
 6. Tovar-pul munosabatlari
 7. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning amal qilishi
 8. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbe kistondagi xususiyatlari 9. Talab va taklif nazariyasi, bozor muvozanati
 10. Mukammal bozorda raqobat va monopoliya.
 11. Narxning mohiyati va uning shakllanishi.
 12. Tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik kapitali
 13. Ishlab chiqarish xarajatlari va foydasi
 14. Ish haqi va mehnat munosabatlari
 15. Agrar munosabatlar va agrobiznes
 16. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.
 17. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi.
 18. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish va milliy boylik.
 19. Yalpi talab va yalpi taklif.
 20. Iste'mol va jamg'arma, ularning manbalari.
 21. Investitsiyaning mohiyati va turlari.
 22. Milliy iqtisodiyotning muvozanati va mutanosibli rivojlanishi.
 23. Iqtisodiyotning siklliligi. Bozor iqtisodiyotida inqirozlar
 24. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik
 25. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat
 26. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari.
 27. Pul-kredit tizimi va banklar
 28. Davlatning iqtisodiy roli
 29. Aholi turmush darajasi va daromadlari
 30. Davlatning ijtimoiy siyosati.
 31. Jahon xo'jaligi va uning rivojlanish evolyutsiyasi
 32. Xalqaro iqtisodiy integrasiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi
 33. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari
- IV. Fan bo'yicha 2 semestrda kurs ishi rejalashtirilgan.**
Kurs ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari
 2. Iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari
 3. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir
 4. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi
 5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari
 6. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati
 7. Raqobat va monopoliya
 8. Narxning mohiyati va uning shakllanish xususiyatlari

o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari. Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Bandlik, ishsizlik va to'liq bandlik tushunchasi. Bandlikning o'zgarish shakli va darajasi. Ishsizlikning sabablari va turlari. Ishsizlik oqibatlari. Ishsizlikni kamaytirish siyosati. Ishsizlik darajasi - ish beruvchilar, ishchi kuchi va ishsizlik darajasini hisoblash. Ishsizlik va uning turlari. Frikstion, tarkibiy va stiklik ishsizlik. Institutional, texnologik, hududiy, yashirin, turg'un ishsizlik. Ishsizlikning tabiiy darajasi. Ishsizlik darajasi va uni aniqlash. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. A.Ouken qonuni. Ishsizlik va inflyatsiyaning o'zaro bog'liqligi.

25-mavzu. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat.

Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Moliyaning mazmuni va takror ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyaning vazifalari. Davlat byudjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat ichki qarzi. Davlat tashqi qarzi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (solliq - byudjet) siyosat va uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni.

26-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Solliq solish tamoyillari. Solliq imtiyozlari. Solliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Solliq yuki va uning darajasini aniqlash. Solliq yukining taqsimlanishi. O'zbekistonda solliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi. Solliq sohasini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalish va natijalari. Moliyaviy siyosat. Fiskal (solliq - byudjet) siyosat va uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni. Solliq sohasini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalish va natijalari.

27-mavzu. Pul-kredit tizimi va banklar

Pul muomalasi. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash. Pul muomalasi qonuni. Pulning aylanish tezligi. Pul miqdorini aniqlashga turlicha yondashuvlar. Pul agregatlari. Pul bozorida talab va pul taklifi. Pul multiplikatori. Kredit tizimi va uning tarkibiy qismlari. Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Kredit munosabatlarining ob'ektlari va sub'ektlari. Kredit resurslarining manbalari. Kredit berish tamoyillari. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish. Bank tizimi. Banklarning iqtisodiy mazmuni. Markaziy bank va uning vazifalari. Tijorat banklari va ularning vazifalari. Bank operatsiyalari va bank foydasining hosil bo'lishi. Bank tizimining takomillashirilishi. Pul - Kredit siyosati. O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash, so'mning xarid quvvatini oshirib borish va barqarorligini ta'minlash vazifalari. Milliy valyuta almashuv kursining barqarorligiga erishish. Inflyatsiyaning mazmuni va turlari.

28-mavzu. Davlatning iqtisodiy roli.

Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik, monetaristik, keynscha nazariyalari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi. Davlatning iqtisodiy vazifalari: bozor munosabatlari qatnashchilarini huquqiy himoyalash, raqobatchilik muhitini vujudga keltirish; resurslar, mahsulotlar va daromadlarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotning va pul muomalasining barqarorligini ta'minlash; tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. Fan-texnika taraqqiyoti, tarkibiy, ijtimoiy va mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda davlatning o'rni. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi bevosita va bilvosita usullari. Iqtisodiyotning davlat sektori va uning chegaralari. Davlat buyurtmalari va davlat xaridlari. Iqtisodiyotni bevosita tartibga solishning ma'muriy vositalari. Tartibga solishning tashqi iqtisodiy usullari.

29-mavzu. Aholi turmush darajasi va daromadlari

Aholi daromadlari, ularning turlari va shakllanish manbalari. Nominal va real daromad. Daromadlarning tabaqalanish sabablari va omillari. Turmush darajasi va sifati. Turmush farovonligi va qashshoqlikning ko'rsatkichlari. Oila byudjeti: daromadlar va xarajatlar tarkibi. Farovonlikning quyi chegarasi. Turmush tarzi. Yashash minimumi. Iste'molchilik savati. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash. Lorenst egri chizig'i. Distel va Jini koeffitsientlari. Kuznest gipotezasi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi omillar. Daromadlarni davlat tomonidan qayta taqsimlash g'oyasi, maqsadi va dastaklari. Ijtimoiy to'lovlar. Ijtimoiy siyosat, progressiv soliq stavkasi va eng kam oylik ish haqining amal qilish siyosatlarini.

30-mavzu Davlatning ijtimoiy siyosati

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish. Ichki iste'mol bozorini himoya qilish. Aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tilishi. O'zini - o'zi bandligini ta'minlash oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbaiga aylanib borayotganligi. Turmush darajasi ko'rsatkichlari. Turmush darajasini va daromad taqsimlanishini taqqoslash. Mutlaq va nisbiy qashshoqlik ta'rifi. Qashshoqlikning sabablari. Qashshoqlikni kamaytirish va daromadlarni qayta taqsimlash siyosati. Real yalpi ichki mahsulot va inson taraqqiyoti indeksi. YAIM va inson taraqqiyoti indeksining ustunlik va kamchiliklari. Turmush darajasi o'rtasidagi farqlar, davlatlar hamda davlat ichida daromadlar taqsimoti. Absolyut va nisbiy qashshoqlik farqi. Qashshoqlik sabablari, jumladan, ishsizlik, minimal ish haqi darajasi. Iqtisodiy o'sish, ta'lim sifatini yaxshilash davlat ta'minoti

31-mavzu. Jahon xo'jaligi va uning rivojlanish evolyutsiyasi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari. Kapitalning xalqaro harakati. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi. Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish. Moliya, valyuta va kredit, jahon savdosi

sohalaridagi tartibga soluvchi tuzilmalar. Davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishidagi shart-sharoitlar. Turli mintaqalardagi asosiy integratsion guruhlilar. Yevropa Ittifoqi (Yel), Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika bitimi (NAFTA), Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari asosiyiyasi (AKEAN), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH), SHanxay hamkorligi. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart - sharoitlari. Respublikaning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining global, transkontinental, mintaqalararo va mintaqaviy darajalari. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

32-mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari to'g'risidagi turlicha nazariyalar Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari. Jahondagi asosiy integratsion guruhlarning amal qilish xususiyatlari. Ochiq iqtisodiyot va uning o'ziga xos belgilari. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdo to'g'risidagi turlicha nazariyalar. Xalqaro savdoning mazmuni. eksport va import, ular o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Eksport kvotasi. Eksport va import multiplikatori. Eksportni hajmi o'zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'siri. Xalqaro savdoning xususiyatlari. Proteksionizm va erkin savdo siyosatlarini. Eksportni rag'batlantirish usullari. Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar. Mutlaq ustunlik va qiyosiy ustunlik nazariyalari. Xeksher-Olin-Samuelson modeli.

33-mavzu. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari

To'lov balansi va uning tarkibi. Tashqi savdo balansi. Absorbtsiya. Kapital harakati balansi. Rasmiy zaxiralarning asosiy ko'rinishlari. Rasmiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalar. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozining vujudga kelishida tashqi qarz va tashqi savdo balansidagi nomutanosibliklar kuchayishining ta'siri. Xalqaro valyuta-Kredit munosabatlari. Milliy va xalqaro valyuta tizimi. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari: oltin standart, oltin-devizli va suzib yuruvchi valyuta tizimi. Valyuta kursi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Xarid qilish layoqati pariteti nazariyasi. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi. Xalqaro valyuta fondi. Evropa valyuta tizimi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro moliyaviy korporatsiya. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Yevropa tiklanish va taraqqiyoti banki. Osiyo taraqqiyot banki.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihatlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Iqtisodiy fanlarning rivojlanish tarixi
2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va o'rganish usullari.